



KUTUBXONADA INNOVATSIYALAR: ZAMONAVIY AXBOROT MAKONIDA YANGI ILDIZLAR

Termiz davlat universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti

Kutubxona-axborot faoliyati

yoʻnalishining 3-bosqich talabasi

Toshpoʻlatova Rayhona Joʻrabek qizi

Annatsiya: Mazkur maqolada kutubxonalarda innovatsion texnologiyalarni joriy etishning ahamiyati, zamonaviy axborot muhitida kutubxonaning oʻrni va funksiyalarining oʻzgarishi tahlil qilingan. Raqamlashtirilgan, elektron kataloglar, sunʼiy intellekt texnologiyalarining qoʻllanilishi orqali kutubxonalar qanday qilib zamonaviy bilim va innovatsiyalar markaziga aylanayotgani yoritib berilgan. Shuningdek, kutubxonachining yangi roli, foydalanuvchilarga koʻrsatilayotgan xizmatlarning zamonaviylashuvi va kutubxonalarning ijtimoiy-maʼnaviy hayotdagi oʻrli haqida fikr yuritilgan.

Kalit soʻzlar: kutubxona, innovatsiya, raqamlashtirish, elektron katalog, sunʼiy intellekt, axborot texnologiyalari, kutubxonachi, bilim markazi.

Toshpoʻlatova.R

Innovation in the library: New roost in the modern information space.

Abstract: This article analyzes the importance of introducing innovative technologies in libraries, the changing role and functions of the library in the modern information environment. It highlights how libraries are becoming centers of modern knowledge and innovation through the use of digitization, electronic catalogs, and artificial intelligence technologies. It also discusses the new role of the librarian, the modernization of services provided to users, and the role of libraries in socio-spiritual life.

Keywords: library, innovation, digitization, electronic catalog, artificial intelligence, information technology, librarian, knowledge center.



Toshpo'latova.R

Zamonaviy davrda ilmiy-texnik taraqqiyot, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi barcha sohalarga, jumladan kutubxona faoliyatiga ham chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Endilikda kutubxona faqat axborot manbai emas, balki ma'naviy-ma'rifiy va innovatsion markaz sifatida faoliyat yuritmoqda. Innovatsion yondashuvlar kutubxonalarni yanada faol, interaktiv va samarali axborot makoniga aylantirmoqda. Shu bois, kutubxonalarda innovatsion texnologiyalarni joriy etish, xizmat ko'rsatishning yangi shakllarini yo'lga qo'yish dolzarb masalaga aylangan. Hozirgi zamon kutubxonashunosligining umumiy yo'nalishi jamiyatning har tomonlama axborotlashuvchi, milliy axborot infratuzilmalarini yaratish, yuksak axborot texnologiyalari yutuqlarini amaliyotga joriy qilish singari ijtimoiy va texnik hodisalarning g'oyaviy-nazariy mazmunini aks ettirishdan iboratdir.

Kutubxonaning axborot resurslari maqsadga mos axborotni olish uchun tashkil etilgan ma'lumotlar yig'indisidir. Kutubxona-bibliografiya resurslari- kutubxonalar oldida turgan vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan axborot, moddiy-texnik va xodimlar bazasi. Axborot resurslari jamiyatning va axborot iste'molchilarining talablarini qondirish uchun zarur bo'lgan hujjatlar, faktlar va boshqalar haqidagi turli xil manbalar bo'lib, kutubxonalarda va axborot markazlarida saqlanayotgan an'anaviy va mashinada o'qiladigan axborot tashuvchilar har xil kataloglar va kartotekalar, ma'lumotlar banki va bazasi hamda axborotga bo'lgan ehtiyojni qondirishga xizmat qiluvchi intellektual va moddiy kuchlardan iborat.[1. 52]

Hozirgi kunda kutubxonalarni raqamlashtirishning o'rni katta. Raqamlashtirish kutubxonalarda innovatsiyalarning asosiy yo'nalishlaridan biridir. An'anaviy bosma kitoblarni elektron ko'rinishga o'tkazish orqali ularni keng ommaga taqdim etish imkoniyati paydo bo'ladi. Elektron kataloglar, onlayn kutubxona bazalari kitobxonlarga masofaviy xizmat ko'rsatish imkonini yaratadi. Zamonaviy kutubxonalarda quyidagi innovatsion xizmatlar yo'lga qo'yilgan:

QR-kodli kitoblar: foydalanuvchi mobil qurilma orqali tezkor axborot oladi. Sun'iy intellekt asosidagi tavsiyalar: o'quvchilarga qiziqishlariga mos kitoblar tavsiya etiladi. Multimedia xonalar: interaktiv darslar, onlayn seminarlar, treninglar o'tkazish imkoniyati mavjud.

An'anaviy kutubxonachi obrazi o'zgarmoqda. Bugungi kutubxonachi axborot texnologiyalarini biluvchi, foydalanuvchilarga yo'naltirilgan xizmatlarni ko'rsatuvchi, madaniy-ma'naviy faoliyatni tashkil etuvchi mutaxassis sifatida shakllanmoqda. Ular foydalanuvchilarni faqat kitob bilan emas, balki axborot resurslari, elektron bazalar va onlayn ta'lim platformalari bilan tanishtiradi. Ko'plab kutubxonalar bugun turli xil ijtimoiy loyihalar, ta'limiy kurslar, seminarlar markaziga aylangan.



Bu esa kutubxonaning faqat o‘quvchi-yoshlar emas, balki barcha yosh toifalari uchun ochiq va jozibador joyga aylanishiga xizmat qilmoqda.

Kutubxonalarda zamonaviy axborot texnologiyasi tizimida MARK foramlarining o‘rni katta. MARK formatlar bibliografik ma’lumotlarni mashinada o‘qishga asoslangan standartlardir. Kutubxona axborot tizimida MARK formatlar kutubxonada mavjud an’anaviy kataloglardagi bibliografik yozuvlarni, ayniqsa, ana shu kataloglar kartochkasiga sig‘may qolgan kengroq ma’lumotlarni mashinada o‘qiy olish imkonini beradi. Eng asosiysi, xalqaro MARK formatlar kommunikativ aloqa vositasi hamdir. [2.195.]

Raqamli texnologiyalar bugungi kunda kutubxonachilik sohasida eng asosiy yangiliklardan biridir. Kitoblar, maqolalar, arxiv hujjatlarini raqamlashtirish orqali ularni saqlash, izlash va foydalanish yanada qulaylashmoqda. Bu jarayon:

Axborot xavfsizligini ta’minlaydi, chunki bosma nusxalar zarar ko‘rishi yoki yo‘qolishi mumkin, raqamli shaklda esa uzoq muddatli saqlash imkoniyati mavjud. Masofadan xizmat ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yadi, ya’ni kitobxon uydan turib kutubxona fondidan foydalanishi mumkin. Ilmiy tadqiqotlar uchun manbalarni tez topish imkonini yaratadi, bu esa o‘quvchi va tadqiqotchilar uchun vaqt va resurslarni tejaydi. Ko‘plab oliy o‘quv yurtlari kutubxonalari hozirda o‘z fondini to‘liq raqamlashtirishga intilmoqda, bu esa ularning ilmiy salohiyatini oshiradi.

Zamonaviy kutubxonalar xizmat ko‘rsatishda turli innovatsion yondashuvlarni qo‘llamoqda: RFID texnologiyasi (Radio Frequency Identification): bu tizim orqali kitoblarni avtomatik tarzda ro‘yxatdan o‘tkazish, topshirish yoki olish mumkin, bu esa kutubxonachi ishini yengillashtiradi. Interaktiv axborot panellari: foydalanuvchi kerakli axborotni ekran orqali mustaqil topa oladi. Mobil ilovalar: ko‘plab kutubxonalar o‘z xizmatlarini mobil ilovalar orqali taqdim etmoqda — foydalanuvchi u orqali kitob bron qilish, yangi kelgan adabiyotlardan xabardor bo‘lishi, hatto onlayn o‘qishi mumkin. Virtual kutubxonalar va elektron resurslar platformalari (masalan, Ziyonet, JSTOR, Springer va boshqalar): bu resurslar orqali ilmiy va o‘quv adabiyotlar keng ommaga taqdim etilmoqda. Hozirgi zamon kutubxonachisi: Axborot texnologiyalari va dasturiy platformalarni yaxshi bilishi kerak. Foydalanuvchilarga onlayn xizmatlar bo‘yicha maslahat bera olishi zarur. Madaniy-ma’naviy tadbirlar tashkilotchisi, moderator sifatida ishlaydi.

Kitobxon bilan shaxsiy yondashuv asosida ishlay oladi, ya’ni foydalanuvchining qiziqishiga mos axborotni topib berish, tavsiya qilish.

Buning uchun kutubxonachilar malaka oshirish kurslarida, AKT bo‘yicha treninglarda ishtirok etishi zarur. Chunki ular endi shunchaki "kitob beruvchi" emas, balki axborot muhitining faol ishtirokchisi.

Respublikamizda axborot asrida yuz berayotgan o‘zgarishlar, kishilarimizning dunyo axborot olamiga kirishiga bo‘lgan intilishlari, qiziqishi va talablarining tobora ortib borish



ta'sirida milliy axborotlashtirish tizimini shakllantirish, axborotga bo'lgan talab va ehtiyojlarni qondirish jarayonini sifat jihatidan yanada takomillashtirish borasida davlatimizning bir qator qonuniy hujjatlari e'lon qilindi va hayotga tatbiq etildi. O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi, "Elektron tijorat to'g'risida"gi va "Elektron hujjatlarni aylanishi to'g'risida"gi, "Elektron raqamli yozuvlar to'g'risida"gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kompiyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Kompiyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarini shular jumlasiga kiritish mumkin. [3.3]

Bugungi kunda kutubxonalar o'quvchi va talabalar uchun nafaqat o'qish joyi, balki ta'lim va ijodiy rivojlanish maydoniga aylangan:

Ilmiy-amaliy seminarlar, treninglar, kitobxonlik klublari tashkil etilmoqda. Startaplar va yosh ixtirochilar uchun markazlar ochilmoqda, bu yerda yoshlar o'z loyihalarini namoyish etish, tajriba almashish imkoniga ega. Ko'rgazmalar, interaktiv tadbirlar, multimediya darslar kutubxonalarning yangi imkoniyatlarini ochib bermoqda.

Masalan, Toshkentdagi "Axborot-resurs markazlari" ham o'zining texnologik bazasi, ochiq fondli zallar, kompyuter va internet xizmatlari orqali yoshlarni innovatsion fikrlashga undamoqda.

Kutubxona faoliyati axborot xizmatining barcha turlarini qamrab oladi. Shunga ko'ra kutubxona-axborot xizmatijtimoiylashtiruvchi institut bo'lgan kutubxonaning tarkibiy qism sifatida ijtimoiy subyektlarning ehtiyojlarini qondirish va rivojlantirish maqsadida jahon axborot resurslari asosida kutubxona- bibliografik va axborot faoliyati vositalari yordamida turli usullar va shakllarda kutubxona- bibliografikva axborot mahsulotlarini hamda xizmatlarini taqdim etishdan iboratdir. Xizmat ko'rsatish zamonaviy kutubxonalarning yetakchi funksiyalaridan bo'lib, tizimga kiruvchi barcha bo'limlarning faoliyatini hamda ular tomonidan amalga oshiriladigan texnologikjarayonlarni uyg'unlashtirilgan tarzda maqsadga yo'naltirishdir.[4.49.]

Innovatsiyalar kutubxonalarni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ular bilim va madaniyat saqlovchisi sifatidagi tarixiy vazifasini saqlab qolgan holda, raqamli dunyo talablariga ham javob beradigan multifunksional markazlarga aylanmoqda. Shunday ekan, kutubxonalarning rivoji – bu butun jamiyatning innovatsion taraqqiyotiga xizmat qiluvchi omillardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, kutubxonalarda innovatsion yondashuvlarni joriy etish axborot xizmatlarining sifatini oshirish, foydalanuvchilarga ko'proq qulaylik yaratish va kutubxonani zamonaviy axborot markaziga aylantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion texnologiyalar kutubxona ishini avtomatlashtiribgina qolmay, balki jamiyatda bilim va ma'naviyat targ'ibotchisi sifatida uning rolini yanada mustahkamlaydi. Shu



sababli, kutubxonalar faoliyatida texnologik yangiliklarni keng joriy etish va bu borada zamonaviy kadrlarni tayyorlash muhim vazifa sifatida qaralishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. I. Berdiyeva. Z. “Bibliografiya” o‘quv qo‘llanma. 4-nashri.-Toshkent: NMIU, 2017- 52 b.
2. Z. Berdiyeva , H. Mamatraimova, T.Zokirova. “Bibliografiya” o‘quv qo‘llanma. 4-nashri.-Toshkent: 2017-195 b.
3. Z. Sh. Berdiyeva, “Kutubxonashunoslik” o‘quv qo‘llanma. 2-nashri.-Toshkent: “ILM ZIYO”-2013-3 b.
4. Toshboyeva U. Yangi tizim yoshlarda mutolaa madaniyatini yuksaltirishgaxizmat qiladi.//jur. 2019-49 b.